



IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI DAVRDA AQSHNING BARQAROR RIVOJLANISHI

Boboyeva Muhayyo Jalilovna

Osiyo Xalqaro Universiteti MM3-T-25 guruhi talabasi

Osiyo Xalqaro Universiteti o'quv-uslubiy bo'limi xodimi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Ikkinchi Jahon urushidan keyingi davrda (1945–1970-yillar) Amerika Qo'shma Shtatlarining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy barqaror rivojlanishi kompleks tahlil etilgan. Tadqiqotda Marshall rejasi, Bretton-Vuds valyuta tizimi, GI qonuni (Servicemen's Readjustment Act, 1944), davlat investitsiyalari va harbiy-sanoat majmuasining iqtisodiy o'sishga ta'siri o'rganilgan. Tarixiy-qiyosiy, statistik va hujjat tahlili metodlari asosida AQSHning XX asrning ikkinchi yarmida global yetakchi davlat sifatida shakllanish sabablari aniqlangan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi, fundamental ilmiy tadqiqotlarga sarmoya kiritish, o'rta sinfning kengayishi va texnologik innovatsiyalar AQSHning shartli ravishda "oltin asr" deb nomlanuvchi davrini ta'minlagan. Maqola xulosalari zamonaviy O'zbekiston Respublikasining barqaror taraqqiyot modeli uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: AQSH, Ikkinchi Jahon urushi, Marshall rejasi, Bretton-Vuds tizimi, iqtisodiy o'sish, "oltin asr", sovuq urush, harbiy-sanoat majmuasi, GI qonuni, barqaror rivojlanish.

Аннотация



В статье представлен комплексный анализ устойчивого экономического, социального и политического развития Соединённых Штатов Америки в послевоенный период (1945–1970-е годы). Исследуется влияние Плана Маршалла, Бреттон-Вудской валютной системы, Закона о реадaptации военнослужащих (GI Bill, 1944), государственных инвестиций и военно-промышленного комплекса на экономический рост. На основе историко-сравнительного, статистического методов и анализа документов выявлены причины становления США как глобального лидера во второй половине XX века. Результаты анализа показывают, что государственное вмешательство в экономику, инвестиции в фундаментальные научные исследования, расширение среднего класса и технологические инновации обеспечили условно именуемый «золотой век» Америки. Выводы статьи имеют практическое значение для модели устойчивого развития современной Республики Узбекистан.

Ключевые слова: США, Вторая мировая война, План Маршалла, Бреттон-Вудская система, экономический рост, «золотой век», холодная война, военно-промышленный комплекс, Закон GI, устойчивое развитие.

Abstract

This article provides a comprehensive analysis of the sustainable economic, social, and political development of the United States of America in the post-World War II period (1945–1970s). The study examines the impact of the Marshall Plan, the Bretton Woods monetary system, the Servicemen's Readjustment Act (GI Bill, 1944), government investment, and the military-industrial complex on economic growth. Using historical-comparative, statistical, and document-analysis methods, the article identifies the reasons for the rise of the USA as a global leader in the second half of the twentieth century. The findings demonstrate that state intervention in the economy, investment in fundamental scientific research, the expansion of the



middle class, and technological innovations secured America's so-called "Golden Age." The conclusions of the article have practical relevance for the sustainable development model of the modern Republic of Uzbekistan.

Keywords: USA, World War II, Marshall Plan, Bretton Woods system, economic growth, "Golden Age," Cold War, military-industrial complex, GI Bill, sustainable development.

KIRISH

Ikkinchi Jahon urushi (1939–1945) tugashi bilan dunyo geosiyosiy va iqtisodiy xaritasi tubdan o'zgardi. Yevropaning eng yirik sanoat davlatlari Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, shuningdek, Yaponiya vayronaga aylangan, jahon iqtisodiyotida boshqaruvchi mavqega ega bo'lgan davlatlar o'rnini Qo'shma Shtatlar egalladi. 1945-yilda AQSH jahon yalpi ichki mahsulotining qariyb 50 foizini ishlab chiqarayotgan, oltin zaxiralarining uchdan ikki qismiga ega bo'lgan va dunyodagi yagona yadroviy qurolga ega davlat edi¹. Ushbu vaziyat AQSHga nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy gegemonlikni ham ta'minlash imkonini berdi. 1945–1973-yillardagi AQSH tajribasi davlatning barqaror rivojlanishida uning siyosatining hal qiluvchi roli, ijtimoiy infratuzilmaga investitsiyalar va xalqaro hamkorlik mexanizmlarining samaradorligini ko'rsatadi. Ushbu davrda AQSHda yalpi ichki mahsulotning yillik o'rtacha o'sishi 3,8 foizni, ishsizlik darajasi esa 4–5 foiz atrofida saqlanib qoldi². Bu ko'rsatkichlar bugungi kunda ham ko'plab rivojlanayotgan davlatlar uchun erishilmas natijalardir.

¹Hobsbawm E. The Age of Extremes: A History of the World, 1914–1991. — New York: Vintage Books, 1996. — P. 257–286. Muallif urushdan keyingi 30 yillik davrni "oltin asr" deb nomlaydi va AQSHning bu davrdagi gegemonligini batafsil tahlil qiladi.

²Gordon R. J. The Rise and Fall of American Growth. — Princeton: Princeton University Press, 2016. — P. 535–540. AQSH iqtisodiyotining 1945–1973 yillardagi yillik o'rtacha 3,8% o'sishi statistik dalillar bilan keltirilgan.



Tadqiqotning maqsadi Ikkinchi Jahon urushidan keyingi davrda AQSHning barqaror iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlagan asosiy omillarni aniqlash, ularning samaradorligini baholash va olingan tajribadan zamonaviy davlatlar uchun amaliy xulosalarni chiqarishdan iborat. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: birinchidan, davrning iqtisodiy-siyosiy sharoitini tavsiflash; ikkinchidan, davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini (Marshall rejasi, Bretton-Vuds tizimi, GI qonuni, Federal Magistrallar tizimi) tahlil etish; uchinchidan, ijtimoiy o'zgarishlarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini aniqlash; to'rtinchidan, AQSH modelining kuchli va zaif tomonlarini baholash.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ikkinchi Jahon urushidan keyingi AQSH rivojlanishi mavzusi g'arb va sharq tarixshunosligida keng o'rganilgan. Jon Kennet Galbreyt o'zining mashhur "Farovon jamiyat" (1958) asarida AQSHda urushdan keyin shakllangan iste'molchilik madaniyatini va o'rta sinfning kengayishini birinchi bor ilmiy doirada konseptuallashtirgan. Muallifning fikricha, davlat sektori, infratuzilma va ta'limga investitsiya kiritmasdan turib, xususiy sektor faqat o'zicha barqaror farovonlikni ta'minlay olmaydi³. Galbreyt nazariyasi AQSH modelidagi davlat-bozor muvozanatining ahamiyatini ko'rsatdi. Tarixchi Jeyms Patterson o'zining "Grand Expectations" ("Buyuk umidlar") asarida 1945–1974-yillardagi AQSH tarixini chuqur tahlil etib, urushdan keyingi davrning uch asosiy xususiyatini ajratib ko'rsatadi: iqtisodiy o'sish, ijtimoiy harakatchanlik va liberal siyosiy konsensus. Muallifning ta'kidlashicha, GI qonuni va Marshall rejasi nafaqat iqtisodiy, balki tubdan ijtimoiy o'zgarishlar dasturlari edi⁴. Patterson tahlili tadqiqotimiz uchun

³Galbraith J. K. The Affluent Society. — Boston: Houghton Mifflin, 1958. — P. 1–18. Muallif AQSH jamiyatining "farovon jamiyat" sifatida shakllanishini va iste'molchilik madaniyatini tahlil etadi.

⁴Patterson J. T. Grand Expectations: The United States, 1945–1974. — Oxford: Oxford University Press, 1996. — P. 61–81. Marshall rejasi va GI qonunining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari kompleks o'rganilgan.



metodologik asos sifatida qabul qilindi. Zamonaviy tadqiqotchilardan Robert Gordon "Amerika o'sishining yuksalishi va inqirozi" (2016) asarida 1920–1970-yillarni AQSH iqtisodiyotining "oltin asri" deb nomlab, bu davrda mehnat unumdorligi yillik 2,7 foizga, bu esa keyingi davrga nisbatan deyarli ikki barobar yuqori bo'lganini ko'rsatib bergan. Eric Hobsbawm "Ekstremallar asri" asarida 1945–1973-yillarni butun jahon tarixida iqtisodiy o'sishning "oltin davri" sifatida tavsiflaydi. Bundan tashqari, Pol Kennedi ("Buyuk davlatlarning yuksalishi va qulashi"), Devid Halberstam, Alan Brinkli kabi tarixchilarning asarlari mavzuni har tomonlama ochib beradi. O'zbek tarixshunosligida mazkur davr asosan jahon tarixi darsliklari doirasida ko'rib chiqilgan bo'lib, mustaqil monografik tadqiqotlar oz uchraydi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot tarixiy-qiyosiy yondashuv asosida olib borildi. Tarixiy-qiyosiy metodning nazariy asoslari fransuz "Annales" maktabi vakili Mark Blok tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u tarixiy hodisalarni izolyatsiyalangan holda emas, balki ularning o'zaro bog'liqligi va dinamikasida o'rganishni nazarda tutadi⁵. Ushbu yondashuv 1945–1970-yillardagi AQSH rivojlanishini global kontekstda Sovet Ittifoqi, Yevropa va Yaponiya bilan qiyoslab o'rganishga imkon berdi. Tadqiqotning empirik bazasini quyidagi metodlar shakllantirdi: birinchidan, miqdoriy-statistik tahlil bunda Angus Maddison tomonidan tuzilgan jahon iqtisodiyoti tarixiy ma'lumotlar bazasidan foydalanildi⁶. Tahlilda yalpi ichki mahsulot, jon boshiga daromad, ishsizlik darajasi, sanoat ishlab chiqarish indekslari kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi o'rganildi. Ikkinchidan, birlamchi manbalar Kongress

⁵Bloch M. Apologie pour l'histoire ou Métier d'historien. — Paris: Armand Colin, 1949. — P. 46–51. Tarixiy-qiyosiy metodning nazariy asoslari ushbu klassik asarda bayon etilgan.

⁶Maddison A. The World Economy: A Millennial Perspective. — Paris: OECD Publishing, 2001. — P. 126–134. Maqolada qo'llanilgan YaIM va aholi jon boshiga daromad ko'rsatkichlari Maddison ma'lumotlar bazasidan olingan.



hujjatlari, prezident nutqlari va xalqaro shartnomalar (Bretton-Vuds bitimi, NATO Shartnomasi) kontent-tahlil asosida o'rganildi. Uchinchidan, tarixiy-genetik metod yordamida davlat dasturlarining (Marshall rejasi, GI qonuni, Federal Magistrallar tizimi) qabul qilinish sabablari va oqibatlari aniqlandi. To'rtinchidan, tizimli-funksional tahlil yordamida iqtisodiyot, siyosat va ijtimoiy sohaning o'zaro ta'siri tadqiq etildi. Bunday kompleks yondashuv AQSHning barqaror rivojlanish modelini ko'p qirrali idrok etish imkonini berdi.

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Tadqiqot natijalari AQSHning urushdan keyingi davrdagi barqaror rivojlanishini ta'minlagan beshta asosiy omilni aniqlashga imkon berdi. Birinchi omil xalqaro iqtisodiy tizimning AQSH manfaatlariga moslab tashkil etilishi. 1944-yil iyulda imzolangan Bretton-Vuds bitimi AQSH dollarini jahon zaxira valyutasi maqomiga ko'tardi va Xalqaro Valyuta Fondi (XVF) hamda Jahon Banki kabi institutlarni tashkil etdi. Ikkinchi omil Marshall rejasi (1948–1952). Davlat kotibi Jorj Marshall tomonidan taklif etilgan dastur doirasida AQSH G'arbiy Yevropaning 16 davlatiga 13,3 milliard dollar miqdorida iqtisodiy yordam ko'rsatdi⁷. Bu nafaqat Yevropa iqtisodiyotini tiklash, balki AQSH eksporti uchun bozor yaratish va kommunistik ta'sirning oldini olishga xizmat qildi.

Uchinchi omil ichki ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar. 1944-yilda qabul qilingan GI qonuni (Servicemen's Readjustment Act) 7,8 millionga yaqin sobiq harbiy xizmatchiga oliy ta'lim olish, uy-joy sotib olish va kichik biznes tashkil etish uchun davlat kreditlari berdi⁸. Bu qonun AQSHda o'rta sinfnining misli ko'rilmagan

⁷Mee C. L. The Marshall Plan: The Launching of the Pax Americana. — New York: Simon & Schuster, 1984. — P. 245–260. 1948–1952 yillarda Yevropaga ajratilgan 13,3 milliard dollarlik yordam dasturining ahamiyati ko'rsatilgan.

⁸Olson K. W. The G.I. Bill, the Veterans, and the Colleges. — Lexington: University Press of Kentucky, 1974. — P. 43–62. 7,8 millionga yaqin sobiq harbiy xizmatchining ta'lim va uy-joy imkoniyatlaridan foydalanishi statistik tahlil qilingan.



kengayishiga olib keldi: 1950-yilda 50 foizdan, 1970-yilga kelib 70 foizdan oshiq fuqaroni o'z ichiga oldi. To'rtinchi omil infratuzilma va texnologiyaga investitsiya. 1956-yilgi Federal Magistrallar haqidagi qonun 41 000 milya magistral yo'llar qurilishini boshlab berdi (umumiy qiymati 25 milliard dollardan oshiq), bu esa ichki tovarlar va xizmatlar oqimini tezlashtirdi. 1958-yilda NASA tashkil etilishi, Defense Advanced Research Projects Agency (DARPA) faoliyati va Milliy ilmiy fondga davlat sarmoyalari fundamental tadqiqotlar va innovatsiyalar uchun moliyaviy poydevor yaratdi.

Beshinchi omil harbiy-sanoat majmuasining shakllanishi va sovuq urush iqtisodiyoti. AQSHning harbiy xarajatlari 1945–1970-yillarda yalpi ichki mahsulotning 7–10 foizini tashkil etdi, bu esa avia, elektronika, kompyuter va telekommunikatsiya tarmoqlarining jadal rivojlanishiga turtki berdi. Statistik ko'rsatkichlar quyidagilarni tasdiqlaydi: 1945–1973-yillarda AQSH YaIM real qiymati 228 milliard dollardan 1382 milliard dollarga o'sdi (o'tgan davrning yillik o'rtacha o'sishi 3,8%). Jon boshiga daromad 1610 dollardan 6196 dollarga ko'tarildi. Avtomobil ishlab chiqarish hajmi 1950-yilda yiliga 8 millionga yetdi. Ushbu davrda Levittaun (1947) singari uy-joy massivlarining qurilishi suburbanizatsiya jarayonini boshlab berdi va iste'mol bozorini sezilarli darajada kengaytirdi. Shu bilan birga, tadqiqot AQSH modelining muayyan kamchiliklarini ham aniqladi: rasiy va gender tengsizligi, daromadlarning regional notekisligi, atrof-muhitga zarar kabi masalalar 1960-yillardan boshlab fuqarolik harakatlari va islohotlar talablarini kuchaytirdi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari Ikkinchi Jahon urushidan keyingi davrda AQSHning barqaror rivojlanishi tasodifiy emas, balki davlatning ongli, tizimli va kompleks siyosati natijasi ekanligini ko'rsatadi. Asosiy xulosa shundaki, davlat iqtisodiyot, ta'lim, fan va infratuzilmaga muntazam ravishda sarmoya kiritgan sharoitda xususiy



sektor ham samarali faoliyat yurita oladi va inklyuziv iqtisodiy o'sish ta'minlanadi⁹. AQSH tajribasi ko'rsatadiki, oliy ta'limning ommaviylashtirilishi (GI qonuni orqali), ilmiy tadqiqotlarga davlat sarmoyalari (NASA, DARPA) va xalqaro iqtisodiy hamkorlik mexanizmlari (Marshall rejasi, Bretton-Vuds tizimi) uzoq muddatli barqaror o'sishning asosiy ustunlaridir. Tadqiqot doirasida olingan natijalar zamonaviy O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanish modeli uchun ham amaliy ahamiyatga ega. Birinchidan, inson kapitalini rivojlantirish ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga sarmoya kiritish uzoq muddatli o'sishning eng samarali yo'li ekanligi tasdiqlanadi. Ikkinchidan, infratuzilma va innovatsion ekotizimga davlat investitsiyalari xususiy tashabbusni qo'llab-quvvatlovchi muhitni shakllantiradi. Uchinchidan, AQSHda kuzatilgan tengsizlik va atrof-muhit muammolari rivojlanishning eksklyuziv emas, inklyuziv va ekologik barqaror modelini tanlash zarurligini ko'rsatadi¹⁰. Bundan kelib chiqib, kelajakdagi tadqiqotlarda AQSH va boshqa rivojlangan davlatlar tajribasini O'zbekistonning "Yangi O'zbekiston 2030" strategiyasi nuqtai nazaridan qiyosiy o'rganish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Brinkley A. The Unfinished Nation: A Concise History of the American People. 8th ed. New York: McGraw-Hill Education, 2016. 928 p.
2. Galbraith J. K. The Affluent Society. Boston: Houghton Mifflin, 1958. 276 p.
3. Gordon R. J. The Rise and Fall of American Growth: The U.S. Standard of Living since the Civil War. Princeton: Princeton University Press, 2016. 762 p.

⁹Kennedy P. The Rise and Fall of the Great Powers. — New York: Random House, 1987. — P. 357–372. AQSH global yetakchilik mavqeining harbiy-iqtisodiy asoslari yoritilgan.

¹⁰Brinkley A. The Unfinished Nation: A Concise History of the American People. 8th ed. — New York: McGraw-Hill, 2016. — P. 768–775. Urushdan keyingi davr islohotlari va ularning uzoq muddatli oqibatlari umumlashtirilgan.



4. Halberstam D. The Fifties. New York: Villard Books, 1993. 800 p.
5. Hobsbawm E. The Age of Extremes: A History of the World, 1914–1991. New York: Vintage Books, 1996. 627 p.
6. Kennedy P. The Rise and Fall of the Great Powers: Economic Change and Military Conflict from 1500 to 2000. New York: Random House, 1987. 677 p.
7. Maddison A. The World Economy: A Millennial Perspective. Paris: OECD Publishing, 2001. 384 p.
8. Mee C. L. The Marshall Plan: The Launching of the Pax Americana. New York: Simon & Schuster, 1984. 301 p.
9. Olson K. W. The G.I. Bill, the Veterans, and the Colleges. Lexington: University Press of Kentucky, 1974. 139 p.
10. Patterson J. T. Grand Expectations: The United States, 1945–1974. Oxford: Oxford University Press, 1996. 829 p.